

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA MILLIY URF- ODATLAR, QADRIYATLAR VA AN'ANALARNING QAYTA TIKLANISHI

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
tarix fanlari kafedrası Assestent o'qituvchisi*

Ergashev Firdavs G'ulom o'g'li

*Axborot texnologiyalari va menejment Universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Abdullayeva Farangiz

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarimiz o'rtasida ma'naviy va diniy jabhalarda kechayotgan murakkab jarayonda barcha millat va din vakillari birlariga nisbatan hamjihatlik bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qilishlari doimiy barqarorlikning muhim omillaridan biri ekanligini yoshlar ongiga sindirishdan iboratdir. So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan Milliy-ma'naviy qadriyatlar – “milliylik” “ma'naviyat” va “qadriyat” tushunchalari kesishgan nuqtada jamlashgan ijtimoiy xodisalarni o'z ichiga oladi. Deylik ayrim millatlar tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishning ma'lum sahasida yuksak layoqatni shakllantirgan tarbiya, tafakkurning ta'siri yo'nalishiga e'tibor beradi. Milliy istiqlol g'oyasining amal qilishiga, kishilar qalbi va ongiga singdirilishiga jiddiy zarar yetkazadigan ayrim tafovutlardan ogoh bo'lishga undaydi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bu muammo ilmiy asosda, xolisona hal qilinmoqda.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, millatlararo hamjihatlik, millat va din vakillari, istiqlol g'oyasi, ma'naviy qadriyatlar, tarixiy ildizlar, umuminsoniylik.





Аннотация: Цель данной статьи – донести до нашей молодежи мысль о том, что в сложных процессах, происходящих среди нашей молодежи на духовном и религиозном фронтах, соблюдение принципов солидарности, толерантности и взаимного уважения представителей всех национальностей и религий по отношению друг к другу является одним из важных факторов прочной стабильности. Национально-духовные ценности, которые в последние годы набирают силу во всем мире, в том числе и в нашем регионе, включают в себя социальные явления, сосредоточенные на стыке понятий «национальность», «духовность», «ценность». Например, некоторые народы обращают внимание на направление влияния образования и мышления, которое в ходе исторического развития сформировало высокую компетентность в определенной сфере производства. Он призывает осознать определенные различия, которые серьезно мешают реализации идеи национальной независимости и ее внедрению в сердца и умы людей. Учитывая это, данная проблема решается в нашей стране на научной основе и объективно.

Ключевые слова: духовность, межнациональное согласие, представители наций и религий, идея независимости, духовные ценности, исторические корни, универсальность.

Abstract: This article aims to impress upon the minds of young people that in the complex process taking place among our youth on the spiritual and religious fronts, the adherence of representatives of all nationalities and religions to the principles of solidarity, tolerance and mutual respect for each other is one of the important factors of permanent stability. National-spiritual values, which have been gaining strength in the whole world, including our region, in recent years - include social phenomena concentrated at the intersection of the concepts of "nationality", "spirituality" and "value". Let's say that some nationalities pay attention to the direction of the influence of upbringing and thinking, which formed high competence in a certain field of production during their historical



development. It encourages us to be aware of some differences that seriously harm the implementation of the idea of national independence and its instillation in the hearts and minds of people. Taking this into account, this problem is being solved in our country on a scientific basis and objectively.

Key words: *spirituality, interethnic harmony, representatives of nations and religions, the idea of independence, spiritual values, historical roots, universality.*

Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi dolzarb muammolardan biri – yangi tarixiy sharoitda jamiyatga munosib kishilarni tarbiyalash edi. Mustaqillik dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz ma'naviy merosini tiklash ishlari boshlanib ketdi. Xo'sh, ma'naviy merosning o'zi nima, uning tiklanishi nimalarda namoyon bo'lmoqda? Ma'naviy meros qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, otabobolarimizdan bizgacha etib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq – odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir..Ma'naviy qadriyatlar, boyliklar inqilobiy yo'l bilan hosil qilinadigan hodisa emas, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi, u jamiyat o'zgarishi bilan yo'qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun meros bo'lib qoladi. . 1991-yil 1-sentabr kuni O'zbekistonning Mustaqil deb e'lon qilinishi, Milliy istiqlolga erishuvimiz xalqimizning ma'naviyat va madaniyatini yanada yuksaltirish imkoniyatini berdi. Bu shunday bir ne'matki, ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniyma'naviy merosga xalq milliy ruhiyati orqali nazar tashlashga, uning sarchashmalarini qalban his qila bilish, xalqona milliy va diniy e'tiqodlarga chuqur ehtirom ila qarash imkoniyatini yaratib berdi. Mustaqillik yillarida xalqimiz ma'naviyati yulduzlari bo'lgan buyuk allamalarimizning tavallud topgan tarixiy sanalari YuNESKO bilan hamkorlik mamlakatimizda va xalqaro miqyosida keng nishonlandi:



- 1991 yil – Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi;
- 1992 yil – Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligi;
- 1993 yil – Zahriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi;
- 1994 yil – Mirzo Ulug`bek tavalludining 600 yilligi;
- 1996 yil – Amur Temur tavalludining 660 yilli;
- 1997 yil – Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon tavalludining 100 yilligi;
- 1998 yil – Ahmad al-Farg`oniy tavalludining 1200 yilligi;
- 1999 yil – «Alpomish» dostoni yaratilganining 1000 yilligi;
- 2000 yil – Burhoniddin Marg`inoniy tavalludining 910 yilligi;
- 2000 yil – Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi;
- 2001 yil – «Avesto» yaratilganining 2700 yilligi.
- 2004 yil – 25 mart – Vazirlar Mahkamasining “Xoja Ahror Valiy tavalludining 600 yilligini nishonlash to`g`risida”gi 143-son qarori qabul qilindi.
- 2004 yil – 16 iyul – Vazirlar Mahkamasining “Shohi Zinda yodgorlik majmuasida qayta tiklash va obodonlashtirish ishlarini tiklash to`g`risida”gi 337-son qarori qabul qilindi
- 2006 yil-Qarshi shahrining 2700 yillii va Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi nishonlandi.
- 2007 yil-Samarqand shahrining 2750 yilligi nishonlanadi[1].

Buyuk allomalarimiz yubileyleri munosabati bilan ularning o`nlab noyob asarlari turli tillarda nashr etildi, ularga atab haykallar o`rnatildi, ziyorathoglar, bog`lar yaratildi. 1991 yilda buyuk bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng demokratik fuqarolik, odil jamiyat qurish maqsad qilib olindi. Madaniyat komil insonni shakllantirishga xizmat qila boshladi. Bu borada ulkan tarixiy va jahonshumul ishlar amalga oshirildi. Jumladan: — qadimiy tariximizning haqqoniy, chuqur va har tomonlama o`rganilishi, tarixiy mavzulardagi sovet davrida taqiqlangan asarlarning chop etilishi xalqimiz illiy-tarixiy ongini



shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda; — shorolar davrida man qilingan yoki cheklangan madaniy qadriyatlar: tarixiy xotira, milliy ong, milliy ruh, diniy e'tiqodlar, xalq odatlari, davlat tili, xalq ijodi, milliy o'yinlar, tarixiy me'morchilik san'ati, ko'pgina an'anaviy ijod turlari tiklandi; xalq odatlari, marosimlari va bayramlari (Navro'z, Ro'za hayiti, Qurbon hayiti kabilar)ning tiklanishi va yangi bayramlar (Mustaqillik kuni! O'qituvchi va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kuni kabilar)ning joriy etilishi xalq ma'naviy hayotiga yangi ruh va mazmun bag'ishlamoqda; — diniy qadriyatlarning tiklanishi, eski machit va madrasalarning ta'mirlanishi, yangilarining barpo etilishi, diniy adabiyotlar nashr etilishiga keng imkoniyatlar yaratilishi respublikamizda vijdon erkinligini ta'minlamoqda; — o'zbek tilining davlat tili darajasiga ko'tarilishi dilni quvontirmoqda. O'z navbatida, jahon tillarini o'rganish ehtiyoji bizni olamga "yuz tutishimiz"ga, jahon hamjamiyatiga qo'shilishga, umuminsoniy qadriyatlarini yanada kengroq o'zlashtirishimizga yordam bermoqda; — xalq ijodi, milliy amaliy san'atimiz jonlanib, rivoj topib, vatandoshlarimiz va xorijliklarni lol qoldirmoqda. Xalq ijodi bo'yicha respublika va xalqaro anjumanlarning o'tkazilishi, ajdodlarimiz merosi, milliy-axloqiy madaniyat durdonalari yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lmoqda.

Xulosa

Har bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, balki mavjud ma'naviy merosga tayanadi. Adolatli milliy siyosat olib borilganida ko'p millatlilik maqsadimiz yagonaligini, taqdirimiz birligini, hamjihatlik zarurligini tushunishga yordam beradi, umuminsoniy g'oyalarning ustuvor bo'lishini, shaxsiy manfaatlarni to'g'ri anglab olishni osonlashtiradi. Aksincha, milliy munosabatlarga ziyraklik va noziklik bilan yondashmaslik umummilliy tamoyillarga biroz e'tiborsizlik ham tinchlik va barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, qomusimizning 18-moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir» [1], - degan qoida ana shu bag'rikenglikning zamonaviy siyosiy-huquqiy



ifodasidir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozadi: "Ayni chog'da insoniyat tarixida buning aksini, ya'ni ko'p elatli davlatlardagi millatlararo munosabatlarda uyg'unlikning yo'qligi, butun xalqlar va mamlakatlarni ancha orqaga uloqtirib tashlagan ijtimoiy-siyosiy falokatlarga olib borganini ko'rsatuvchi misollar ham oz emas. Zero, ko'p elatlilik nafaqat ayrim mamlakatlarning, balki butunbutun mintaqalarning ham ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi bosh omilga aylangan". Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng O'zbekiston rahbariyati, eng avvalo, xalqimizning ehtiyoji, orzuistaklarini hisobga olib, azaliy bayramlarni tiklashga va yangi istiqlol bayramlarini shakllantirishga katta e'tibor berildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov Farmonlari asosida "Navro'z", "Ro'za hayiti", "Qurbon hayit" lari rasman tiklanib, xalq o'rtasida keng nishonlana boshlanishi va istiqlolni sharaflaydigan bayramlar "Mustaqillik kuni" va "Konstitutsiya kuni" bayramlari joriy etildi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent O'zbekiston 2018.
2. Islom Karimov. "yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" toshkent Ma'naviyat 2008
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz - kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998. B.18 188
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. B.140
5. Mansurov U., To'xtaboyev A. "O'zbekistonning madaniyati va sa'nati tarixi" O'quv qo'llanma TOSHKENT: "O'z kitob savdo nashryoti matbaa ijodiy uyi", 2021. B.148



6. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *Development and innovations in science* 2.7 (2023): 8-14.
7. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *Farg'ona davlat universiteti*, (3) (2023): 67-67.
8. НОМОЗОВ, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ." *Философия и право* 26.3 (2023): 232-235.
9. Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOYIY FUNKSIYASI." *TAMADDUN NURI JURNALI* 1.64 (2025): 253-255.
10. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYAT IJTIMOYILASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O'RNI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 83-88.
11. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOYILASHUV SHAKLLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 1(2), 52-58.
12. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 113-118.
13. O'G'Li, Nomozov Xurshid Shavkat. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI-INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." *Research Focus* 2.6 (2023): 105-110.
14. Nomozov, Xurshid (2022). THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 229-231.
15. Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJLARINING MANBALARI, ULARNING IJTIMOYIY MUHITDA AMALGA OSHISH USULLARI." *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari* 41.1 (2025): 632-636.



16. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "AXBOROTNING ZAMONAVIY TARKIBI." *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari* 41.1 (2025): 628-631.
17. Nomozov Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.
18. Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.